

TEMURIYLAR HUKMDORI SULTON ABUSAID MIRZO VA UNING SHOIR

AVLODI TARIXI

Sherxon Qorayev

filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori,

Qarshi irrigatsiya va agrotexnologiyalar instituti dotsenti

Temuriy sultonlar an'analaridan kelib chiqib, Sulton Muhammad ibn Mironshohning o'g'li Movarounnahr va Xuroson hukmdori **Abusaid Mirzo** (1424-1469) saroyida ham she'riy yig'inlar o'tkazilgan. Xondamirning yozishicha, "Mirzo Sulton Abusaid himmat ulug'ligi va manzilat yuksakligi, aqlu farosat yetukligiyu fahmu idroki to'laligi bilan mag'firatli sohibqiron Amir Temur Ko'ragon sulolasi sultonlari ichidagi boshliqlardan bo'lib, insof palosini yoyish va xalqparvarlik xislati hamdaadolat poydevorini qurish va marhamat ko'rguzish bobida shu qadar ko'p tirishqoqlik namoyon etardiki, hech kim bu yanglig' martabadan ortig'ini tasavvur qila olmasdi. Jahon oluvchi aqlining yog'dusi mamlakat tegrasiyu millat yo'lini yoritar hamda osmono'par soyabonining oychasi oy va quyosh nurini so'niq va yo'q sanar edi. Hukm chiqarish ishlarini hal etishda hech qachon payg'ambar shariati yo'lidan tashqari qadam bosmasdi. Sayyidlar va olimlar, mashoyix va fozillarga yaxshilik qilishda hamisha sa'y – harakat shartlarini bajo keltirardi [12, 546]. Tarixiy ma'lumotlarga ko'ra, Sulton Abusaid Mirzo 1448 yilgacha Ulug'bek saroyida yashagan. Ammo yoshlik davri haqida ma'lumot yo'q. Ulug'bek vafotidan so'ng taxt uchun kurashga kirishgan. Abdullatif Mirzo uning isyonini bostirgan va o'zini Buxoroda hibsda saqlagan. Abdullatif o'ldirilgandan keyin ozodlikka chiqqan Sulton Abusaid o'sha vaqtda taxtni egallagan Abdulloh Mirzodan hokimiyatni tortib olish uchun kurashgan. Bu kurashda dastlab Abdulloh Mirzoning qo'li baland kelgan. Sulton Abusaid esa qochib, Dashti Qipchoqqa-Abulxayrxon oldiga borib, yordam so'rangan. 1451 yilda u Abdulloh Mirzoni mag'lubiyatga uchratib, Movarounnahr taxtini egallagan. Faxriddin Ali Safiyning "Rashahotu aynil-hayot"ida hikoya qilinishicha, bir kuni temuriy Sulton Abusaid Mirzo tush ko'rdi. Tushida avliyolar sultoni Xoja Ahror Valiy Ahmad Yassaviy ishorasi bilan uning haqqiga fotiha o'qiydi.

Sulton Abusaid tushida ko'rgan avliyoni izlab, Toshkentga keladi va suhbatlashadi. Muloqot oxirida esa Xoja Ahrordan yana bir bor zafar duosi berishini so'raydi. Ammo Xoja Ahror "Fotiha bir bo'lur!", deya unga nusrat va zafar qozonishi uchun tushdagi duoning o'zi kifoya qilishini aytadi. Darvoqe, ana shu fotiha tufayli Sulton Abusaid ko'p o'tmay Samarqandni qo'lga kiritadi va Xoja Ubaydulloh Ahrorni poytaxtga ko'chirib keladi, keyinchalik u Movarounnahr va Xuroson podshohiga aylanadi. Darhaqiqat Sulton Abusaidning piri murshidi, aziz - avliyo Xoja Ahror valiy duolari mustajob bo'lgan aziz insonlardan bo'lgan [2, 72].

1457 yil Xuroson hukmdori Abulqosim Bobur vafot etganini eshitgach, Sulton Abusaid Mirzo Samarqandni katta o'g'li Sulton Ahmad Mirzoga qoldirib, darhol Hirotg'a yurish qilgan va uni egallagan. Shu tariqa Xuroson va Movarounnahr qaytadan birlashtirilib, temuriylar davlatida markaziy hokimiyat tiklanadi [1, 462-463].

Temuriy sulton ham boshqa mirzolar kabi adabiy kechalar tashkil etib, qasidayu g'azallar eshitib zavqlangan. Sulton Abusaidning dastlab 1451 yildan Samarqanddag'i, 1457 yildan boshlab Hirotdagi saroyida shoirlar majlislari tashkil etilgan va mushoiralar yig'inlari

yuushtirilgan. O‘z davrining mashhur shoiri Kotibiy Nishopuriy Sulton Abusaidda bag‘ishlangan quyidagi qasidasini temuriy hukmdorning Hirot saroyidagi majlislarida o‘qigan:

Gahiki, tig‘i tu da qatli ahli did baroyad,
Ba yak mushohada maqsudi sar shahid baroyad.
Manol, Kotiby, az shomi g‘am ki subhi saodat,
Ba yumni davlati Sulton Abusa‘id baroyad.

(Mazmuni: Goho tig‘ing oshiqlar qatli uchun ko‘tarilganda, bir ko‘rish bilan yuz shahidning maqsadi hosil bo‘ladi. Kotibiy g‘am to‘ningdan nolima, Abusaid davlati barakatidan saodat tongi otib qoladi.)

Adabiyotshunos Rustam Jabborovning yozishicha, sulton fors tilini bilmagan. Shu bois shoirlar unga turkiy tilda qasidalar bitishga harakat qilishgan. Saroy shoirlaridan Sayyid Qosimiyning “Majma‘ ul-axbor” asari Sulton Abusaid Mirzoga bag‘ishlangan va mazkur asardagi hukmdor madh etilgan quyidagi satrlarda uning adabiy majlislari zikr ham etilgan:

Hamdi xudo birla ravon och tiling,
Madhi shahanshohg‘a bog‘la beling.
Nosiri din, mulk eyasi Bu Sa‘id,
Davlatidin elga turur kunda iyd.
Egri bo‘lur majlisida rostrav,
Boshdin etar durri guharlarni nav.
Qildi qo‘buz barcha so‘zin ixtisor,
Ayta turur madhi shahi komkor [3, 18].

Sulton Abusaid Mirzo Oqsaroy qurganda imoratga kitoba (yozish) uchun shoirlarga she‘r bitishni buyuradi. Mavlono Ishqiyning she‘ri esa podshohga ma’qul tushadi:

In manzare ki toq chu abro‘i dilbar ast,
Az xok bar giriftai doroi kishvar ast [4, 16].

(Mazmuni: Peshtoqi dilbarning qoshiga o‘xshagan bu manzara mamlakat podshohining tuproqdan yuksaltirgan binosidir).

Abdusamad Badaxshiyga “Podshoh (Abusaid Mirzo) o‘z tarixin buyurdi” [5, 322]. U shuningdek sulton adabiy majlislarida ishtiroy etgan. Ulug‘ shoir va mutafakkir Abdurahmon Jomiy ham Sulton Abusaid Mirzo huzuridagi mushoira kechalarida ishtiroy etib, hukmdor madh etilgan g‘azallarini o‘qigan:

Soqiy, ba shakli jom bar omad hiloli iyd,
May deh ba farri davlati Sulton Abusa‘id.
Iyd nav astu, yor nav ast va bahor nav,

Dorad zi har jadid dilam lazzati jadid.

Shud bar mazid ishrati mo az duoi shoh,

Bodash hamisha davlati iqbol bar mazid.

Jomiy, shakkar laboni Samarqandro shudiy,

Az jon murid – “yassarak Allohu mo murid”.

(Mazmuni: Soqiy, jom shakliga kirdi iyd oyi bu tun, Sulton Abusaid davlatidan biza may sun. Iyd yangi, yor yangi, bahor kelmish yangidan, Har yangidan dil zavqi yangilandi butun. Shoh duosidan ortdi o‘yin-kulgu fayzi, Uning-da davlati baxti bo‘lsin doim fuzun. Jomiy, Samarqand shakarlablariga bo‘ldi Murid: “Olloh, umidingga oson yetursun [13, 36]”.)

“Mavlono Muammoiy” nomi bilan mashhur bo‘lgan Mavlono Shamsiddin Muhammad Buxoriy ham Sulton Abusaid adabiy majlislarida ishtirok etgan: “Mirzo Sulton Abusa’id mulozamatida ham e’tiborga ega edi. Hamisha (majlislarda) hazilomuz so‘zlar va quvonch bag‘ishlovchi gaplar aytardi [12, 659]”. Mavlono Shamsiddin Ali al-Forsiy “zamon fuzalosi a’lamni va davron ulamosi afzali edi. Said sulton (Abusaid Mirzo) ul janobga nisbatan ko‘p iltifot va inoyat ko‘rsatardi. Nasabi “Kashfi kashshof” muallifiga ulangani uchun “sohibi kashf” laqabi bilan mashhur bo‘ldi [12, 657]”. Sayyid Sadriddin Ibrohim Qumiy “sohib saodat sayyidlar ulug‘lari jumlasidan edi va hamisha said sulton Mirzo Sulton Abusaid bilan suhbatlar qurardi [12, 656]”.

Navoiyshunos olim Shuhrat Sirojiddinov manbalarga tayanib, Navoiy Husayn Boyqaro davrigacha uch hukmdor - Abulqosim Bobur, Sulton Abusaid va Sulton Ahmad Mirzo saroyida xizmat qilganini, adabiy majislarda qatnashganini aytadi [6, 62]. Xondamir ham “Habib us-siyar”da Navoiy “Sulton Abusaid hukmronligi kunlari Hirotga kelib, bir necha muddat vaqt iqbol oshyoniostonasi(sulton saroyi)ning mulozamatida bo‘lgan [7, 116] ini yozgan. Albatta Sulton Abusaid saroyida ham Navoiy kabi ko‘plab shoirlar xizmat qilgan. Sulton saroyida xizmat qilgan shoirlar sirasiga Amir Shayxim Suhayliyi ham qo‘sish mumkin. Bu borada Navoiy “Majolis un-nafois”da shunday yozgan: “Sulton Abusaid Mirzo xizmatiga tushib, maxsus mulozim bo‘ldi va ash’ori el orasida shuhrat tutti [5, 338].” Bu o‘z navbatida Xurosonda mashhur bo‘lgan shoir Suhayliyning tanilishida sulton majislari muhim rol o‘ynaganini anglatadi. Herman Vamberi ham Shayxim Suhayliy Sulton Abusaid saroyi shoirlaridan biri bo‘lganligini yozgan: “Suhayliy yoxud Amir Shayxim Suhayliy. Ilk bor Abusaid mirzo saroyida, keyin 20 yilcha Mirzo Husayn saroyida yashagan ushbu zot Hindistonning “To‘tinoma” masallarini favqulodda go‘zal tarjima qilgan [8, 73]”. Botir Valixo‘jaev “Alisher Navoiy va Shayxim Suhayliy” maqolasida o‘zbek va fors tillarida she’r yozgan zullisonayn shoir Suhayliy haqida shunday yozgan: “Davlatshoh ibn Baxtishoh Samarqandiyning “Tazkirat ush-shuar” asarida ma’lumot berilishicha, Shayxim Suhayliy O‘rtal Osiyolik (“Ulusi Chig‘atoy”) bo‘lib, uning ota-bobolari Amir Temur zamonidan boshlab, katta e’tibor va obro‘ga ega bo‘lganlar. Suhayliy ana shunday oilada XV asrning birinchi yarmida tug‘ilgan.

Oti Ahmad, laqabi Shayx, Shayxim, Shayximbek, sharafli unvoni Nizomiddin (Alisher Navoiyning ham sharafli unvoni Nizomiddin bo‘lgan –B.V.), adabiy taxallusi Suhayliy bo‘lgan bu shaxs o‘sha davrning odatiga ko‘ra, yoshligidan ma’lumot olgan. Alisher Navoiyning yozishicha, “kichik yoshidin tab’ osori va zehn namudori andin ko‘p zohir” bo‘lgan. Ahmad o‘z davrining maktabi va madrasalari programmasi materiallarini o‘rganib olib, mustaqil mutolaa bilan ham ko‘p vaqt mashg‘ul bo‘lgan. Shu tufayli zamonasining ilg‘or ziylolaridan, Alisher

**INTERNATIONAL CONFERENCE PEDAGOGICAL REFORMS AND
THEIR SOLUTIONS**
VOLUME 2, ISSUE 2, 2024

Navoiyning iborasi bilan aytganda, “hamida ahloq va pisandida maosh atvorli” kishilaridan biri bo‘lib yetishgan.

Keyinchalik (yuqorida ta’kidlanganidek), xususan yigitlik davrida u Sulton Abusaid Mirzoga maxsus mulozim bo‘lib xizmat qilgan [9, 121-143] va hukmdor huzuridagi she’riyat kechalarida ishtirok etib, majlis ahliga o‘z g‘azallari, sultonga bag‘ishlangan qasidalarini havola etgan.

Shuni alohida aytish mumkinki, Sulton Abusaid Mirzo davrida ham Xuroson va Movarounnahrda madaniy hayot va adabiyot rivojlandi, uning atrofida Suhayliy, Qosimiyy, Badaxshiy kabi ko‘plab shoirlar to‘plandi va barakali ijod qildi, mushoiralar va adabiy kechalar tashkil qilishdi. Zotan, adabiyotshunos Ibrohim Haqqul yozganidek, “ko‘pdan ko‘p shoh, sulton va xonlar singari Abusaid ham o‘z umri, xayrli amallarini tarix zarvaraqlariga muhrlash uchun shoirlardan foydalangan. Uning hukmronligi paytida Abdusamatad Badaxshiy degan shoir Badaxshondan Hirotg‘a ko‘chib keladi. Podshoh unga masnaviyda “Abusaidnama” mazmunida tarix yozishni buyuradi. Asar nihoyasiga yetgach, muallif uni Navoiyga o‘qitadi. “Bir baytida tajnis xayol qilib, - deydi Navoiy,-qofiyasi g‘alat qilib erdi, faqir ani voqif qilg‘och, filloh mutanabbih bo‘ldi (aniq va to‘liq angladi) va izhori minnatdorlig‘ qildi va bu ish aning bila faqir orasida oshnoliqqa sabab bo‘ldi [9, 44-45].

Xullas, Abusaid Mirzo she’rparast bo‘lmasa hamki, she’riyatning ko‘ksiga pichoq sanchadigan darajada johil va gumroh ham emas edi.

Ustodi Mavlono Lutfiyni Navoiy “o‘z zamonining malik-ul kalomi erdi”, deganini bugun maktab o‘quvchisi ham biladi. Lekin uning asarlaridan ma’lum qismi Sulton Abusaid zamonida yaratilganini hamma ham bilmasligi mumkin. Xuddi shunga monand fikrni sulton bilan shaxsan yaqinligi bo‘lgan forsiy adabiyotning buyuk namoyandasini Nuriddin Abdurahmon Jomiy haqida ham aytish kerak bo‘ladi.

Albatta, Navoiyning millat va bashar shoiri bo‘lib kamol topishi, dunyoga tanilgan san’atkor maqomini egallashida Sulton Abusaid hech vaqt Husayn Boyqaro darajasida erk ham, imkon ham bermasdi. Bunga shubhalanmaslik kerak. Biroq Navoiyni ulug‘lab, shijoatini sharaflash uchun mutafakkir shoирга Abusaidni qattol bir dushman qiyofasida ko‘rsatishning ham keragi yo‘q. Aks holda, Navoiyning xolisligi va bag‘rikengligi kamsitiladi (10, 120-129). Ayrim adabiyotshunoslari Boburning “Boburnoma”dagi Sulton Abusaid Navoiyni qandaydir vaj bilan ixroj (surgun) qilgan degan fikriga asoslanib, yosh Alisher bilan kelishmay qolgan hukmdor uni Hirotdan Samarcandga surgun qilganligini yozadilar. Ammo, Sayyid Imomxo‘ja Salimi yuqoridagi taxminlarni inkor etib, shunday yozgan: “Ko‘pgina navoiyshunoslari Alisher Navoiyni Sulton Abusaiddan yaxshilik ko‘rmadi, degan fikrni ilgari surishadi. Bunga sabab Alisher Navoiyning Sulton Husayn Boyqaro bilan do‘stligidir, deyishadi. Xo‘s, Sulton Abusaid Alisher Navoiyni yomon ko‘rar ekan, unda nega Samarcandda hukmdorni hurmat qilgan ulug‘lar – Xoja Ahrori Valiy va Xoja Fazlulloh Abullayslar shoirimizni farzandday e’zozladilar. Mening nazarimda, Sulton Abusaid Alisher Navoiyni Samarcandga Xoja Ahror demokratiyasini anglab yetsin, degan ma’noda ham jo‘natgan bo‘lishi mumkin. Bu mavhum tushunchalarga barham berish kerak, deb o‘ylayman. Alisher Navoiy Samarcandga ilm istab, murshidi komil istab kelgan edi. Uning baxtiga o‘z asrining mashhur olim va adiblari, jumladan Xoja Fazlulloh Abullaysiy, Sa’diddin Koshg‘ariy, Sayyid Qosim Anvor, Abdurahmon Jomiylar “Ka’bai maqsud”, “Mursjadi ofoq” deb bilgan Xoja Ahrori Valiy uchradi. Sulton Abusaid esa buyuk pirning fikrini hech qachon rad etolmas edi [11, 40].”

Sulton Mahmud Mirzo G‘oziy (1453-1495) – Temuriylarning qudratli hukmdorlaridan biri Sulton Abusaid Mirzo (1424-1469)ning mumtoz adabiyotimiz tarixida shoir sifatida nom

goldirgan podshoh o‘g‘lidir. U otasining sultanati davrida 1462 yilda Astrabodga hokim bo‘lgan. 1469 yilda Sulton Abusaid halok bo‘lganidan so‘ng Hirota, u yerdan Samarqandga kelgan. Keyin Hisor viloyatiga borib, 1494 yilgacha u yerda hukmdorlik qilgan. Akasi Sulton Ahmad Mirzo vafot etganidan so‘ng, Samarqand taxtiga o‘tirgan. Xondamirning yozishicha, “shijoat va mardonialik sifati bilan vasf etilgan, donolik va saxovatu tantilik bobida tanilgan, yaxshi xulq va chiroli odob egasi,adolat va insof poydevorini mustahkamlash, zulm va nohaqlik qoidalarini vayron etishda sultonlar ustuniga boshchilik qilardi. O‘tkir qilichi urush payti dinu davlat dushmanlarining iqbol daraxtini chopar, qon oqizuvchi nayzasi jang maydonida mulku millat a‘lo bayrog‘ining eng balandi edi. Shuningdek, olamni bezovchi aqli xurshid kabi mashriqdan nur sochuvchiyu yog‘dulik koni, to‘g‘ri tadbiri qorong‘i kechadagi o‘n to‘rt kunlik oy misoli yorug‘lik manbasi, pok ko‘ngli maoniylar haqiqatlarini anglovchi va o‘tkir zehni nuktadonlik hikmatlari to‘plami, saxiy qo‘li fozillar turmushining kafolati va in‘omining ko‘zi olimlar hayotining sharofati edi [22, 639]” Binobarin, o‘z davrida Sulton Mahmud shoir sifatida Movarounnahr va Xurosonda mashhur bo‘lgan. Ammo, negadir mazkur temuriy hukmdorni Navoiy “Majolis un-nafois” tazkirasida shoir sifatida zikr etmagan. Biroq, Faxriy Hiraviy “Ravzat us-salotin”da Hisor hukmdori Sulton Mahmud Mirzoni “Zilliyy” taxallusi bilan she‘rlar yozganini aytib o‘tgan. Balki Navoiy hukmdor do‘sti Husayn Boyqaroga Sulton Mahmud Mirzo bir umr dushmanona kayfiyatda bo‘lgani va uning davlatiga hujum qilib turgani uchun o‘z tazkirasida zikr etmagandir. Ammo bu yog‘i bizga qorong‘u. Tarixning bu sahifalari hozirgacha o‘rganilmagan.

Sohibdevon shoir **Sulton Mahmud Zilliyy** “hamisha fazilat oroyish royni fazl va kamol ahli tarbiyatiga qaratgan, hunarparvar boqiy fozillar uning firdavsmisol majlisini sehrli fikrlari natijalari va ash‘ori javohirlari bilan bezagan [14, 55].” “Ravzat us-salotin”da yozilishicha, “u (Sulton Mahmud Mirzo) ham gohida tab‘i latofatidan nazmga mayil ko‘rsatar va Zilliyy deb taxallus qo‘yar edi. Va mana bu benazir matla’ unikidir:

Gunbadi gardun ki xishti nuqra va xishti zar ast,

Peshi ahli binish to‘dai xokistar ast. [14, 55]

(Mazmuni: Bir g‘ishti kumushu bir g‘ishti tilladan bo‘lgan gardun gunbazi, Kelajakni ko‘ra oluvchilar oldida bir uyum changdir.)

Biroq, Bobur “Boburnoma”da amakisi Sulton Mahmud Zilliyy ijodini keskin tanqid qilib, “tab‘i nazmi bor edi, devon tartib qilib edi, vale she‘ri bisyor sust va bemaza edi. Andoq she‘r aytqondin aytmog‘on yaxshiroqdur”, [2, 48] deb yozgan. Demak, Alisher Navoiy “Majolis un-nafois”da Sulton Mahmud Zilliyy she‘rlari shoirlar sultonining talablari darajasida bo‘limgani, “bisyor sust va bemaza”ligi uchun qayd etmagan, bo‘lishi mumkin. Chunki, bizningcha, temuriy podshoh Sulton Mahmudning uch shoir o‘g‘lini tazkirada zikr etgan holda ularning shoir otasi va uning she‘rlari haqida Alisher Navoiyning eshitmasligi hamda u haqda bilmasligi mumkin emas edi.

Sulton Mahmud Mirzo saroyida ham ko‘plab shoirlar xizmat qilgan. Shulardan biri “Xotamiy Sulton Mahmud Mirzo Chig‘atoyning e’tiborli shoirlaridan bo‘lgan. Juda kuchli shoir o‘tgan va o‘z she‘ru qasidalarida mazkur shahriyorni madh etgan [3, 30].” Mutribiy Samarqandiyning shoir Xotamiy asaridan keltirgan iqtibosidan ma’lum bo‘ladiki, uning masnu‘ g‘azal (Samarqand hokimi Ahmad Hojibekka bag‘ishlangan qasida) yozishiga “sakkiz yuz sakson hijriy yil (milodiy 1483 yil 9 fevral - 1484 yil 29 yanvar oralig‘i) G‘azna viloyati ulug‘laridan bir buzrukvor (shoir) shu bahrda uch iltizomli bir g‘azal yozib, dorussaltana Hirota yuborgan va u yerdan esa bu g‘azalni omonlik uyi - Samarqandga keltirgan edilar. Shoir

**INTERNATIONAL CONFERENCE PEDAGOGICAL REFORMS AND
THEIR SOLUTIONS**
VOLUME 2, ISSUE 2, 2024

Xotamiy bu paytda “hazrat xi洛fatpanohning aziz yig‘inida qatnashayotgan bo‘lgan”. Majlisda o‘tirgan azizlar Xotamiydan mazkur g‘azalga javob aytishni iltimos qiladilar.

Suxane chand dar miyon ovard,

Peshi on jam’ tarjimon ovard [13, 33].

(Mazmuni: Bir necha so‘zni varaq yuzi uzra sochdim, Shu ila o‘tirish ahliga qalbim ochdim.)

“Tazkirat ush-shuaro”da shoir Xotamiyning (yuqorida zikr etilgan) “Ulug‘ mukarram amir va olimlar murabbiysi, fozillar homiysi, Hasson bayonli, zamon Salmoni, beniyoz tangri nazari vositasida odamlarga manzur bo‘lgan Amir Shujo’ ud-davlata vad-din Ahmad Hojibekka [13, 31] bag‘ishlangan masnu’ qasida keltirilgan:

Doram ruxe ba zardiy chun zar ba kor, yoram,

Az oh dida sardiy, dil dar g‘ubor doram.

Yoram chu ishq bozam, be ashk agar gudozam,

Chun Xotamiy ki sozam dilro nisor, yoram [13, 31]

(Mazmuni: Yuzim sariqlik-la tillodek yarar ishga, yorim, Ohdan ko‘z sovuqligi-yu dilim g‘ubor arodir. Yorim chun ishqbozman agar yonsam ham hech shaksiz, Chun, Xotamiy, ki qilarman dilimni nisor, yorim.)

Tazkirada keltirilgan ma'lumotlardan va yuqoridagi qasida 1483 yilda yozilganidan anglashiladiki, shoir Xotamiy Sulton Ahmad Mirzo davrida (1457-1494) ham Samarqandda yashagan va temuriylar davri an'analaridan kelib chiqib, Movarounnahr hukmdori Sulton Ahmad va uning Ahmad Hojibek kabi amaldorlariga xizmat qilgan, adabiy majlislarda qatnashib, she'rlarida ularni madh etgan. Keyinchalik esa, Xotamiy Sulton Mahmud Mirzo saroyi shoiriga aylangan. Bundan tashqari, u hukmdorning Sulton Mas‘ud, Boysung‘ur, Sultonali kabi shoir farzandlari bilan ham yaqindan muloqotda bo‘lib, mushoiralar uyuştirgan bo‘lishi ehtimol. Sulton Mahmudning atrofidagi amirlardan Mahmud Barlos ham sohibdevon shoir bo‘lgan [1, 46].

Temuriy shoir sultondan ibrat olib, uning farzandlari ham o‘z saroylarida shoirlar, fozillar va san’atkorlar ishtirokida she’riyat kechalari o‘tkazganlar. Bobur Sulton Mahmud Mirzoning “(adabiy) bazmi juda yaxshi edi”[1, 44], deb e’tirof etgan.

Sulton Mas‘ud Mirzo Shohiy(1475-1506) – Sulton Mahmudning to‘ng‘ich o‘g‘lidir. U “ravshan zehnlik va mustahsan tab’liq” [14, 417] shahzoda deya zikr etilgan, o‘zbek tilida “Shohiy” va fors tilida “Orifiy” taxalluslari bilan ijod qilgan, ikkala tilda ham devon tuzgan yetuk shoir Sulton Mas‘ud Mirzo ota–bobolari kabi she’rxonlik kechalari o‘tkazgan. Bunday majlislarda o‘zi ham she’rlaridan o‘qib, shoirlarni mushoiraga chorlagan. Navoiy shahzodaning shoirligi haqida shunday yozgan: “Nazm zeb va ziynat itmomida abnoi jinsqa maqsud. Bu turkcha matla’ aningdurkim:

Yor borib jong‘a qo‘ydi dog‘i furqat, ey rafiq,

Ko‘nglima kor etmasunmu dardi g‘urbat, ey rafiq [4, 417].

Sulton Mas'ud Mirzo otasi vafotidan so'ng Samarcand taxtini da'vo qilib, ukasi Boysunqur Mirzoga qarshi Hisordan qo'shin tortib, Keshga yetib keladi. Ikkinchisi ukasi, Qarshi hokimi Sultonali Mirzo ham tarxonlar yordamida Samarcandni egallash harakatiga tushadi. Samarcand qamali 4 oyga cho'ziladi. Bobokaloni Amir Temur poytaxtini qo'lga kiritish olib ortiga qaytadi. Sulton Mas'ud Mirzo Shayx Abdullo Barlosning go'zal qizini nikohiga olib ortiga qaytadi. Bobur va Sultonali Mirzolar qish o'tgach, yana Samarcand uchun kurashni davom ettirishga kelishib, o'z yurtlariga ravona bo'lishadi. Ko'p o'tmay Boysung'ur Mirzo Hisorni qamal qiladi. Sulton Mas'ud Mirzo Sulton Husayn Boyqarodan panoh izlab, Hirota boradi. Yaxshi kutib olinganiga qaramay, o'zboshimchalik bilan Xusravshoh huzuriga qochib boradi. Xusravshoh uning ko'ziga mil torttiradi. Sulton Mas'ud Mirzoni yaqin qarindoshi yana Hirota olib boradi. Sulton Husayn unga Begim ismli qizini nikohlab beradi. Sulton Mas'ud 1507 yilda Shayboniyalar tomonidan o'ldiriladi [15, 465-466].

Shoirlar sultoni temuriy shahzoda Sulton Mas'ud Mirzo Hirota kelganda, u bilan uchrashgan, yaqindan muloqotda bo'lgan hamda mushoira kechalarida ishtirok etgan. Binobarin, "Majolis un-afois"da Navoiyning Shohiy ijodidan namuna keltirishi hamda inson sifatida shaxsiy fazilat va xulq – atvori haqida ham so'z ochib yuqori baho berishi xuddi shunday uchrashuvlar bo'lganiga aniq ishora etadi. Shohiy g'azallaridan birida esa ulug' shoir ijodiga katta hurmat izhor etuvchi hamda Navoiyyona she'r yozishga intilganini ravshan ifodalovchi quyidagi misralarning bitilishi ham bejiz bo'lmay, bevosita uchrashuvlar ta'siriga guvohlik beradi:

Baski, Shohiy, topti she'ring el aro bargu navo,

Tong emaski, she'r ilan desang "Navoiyvor men!"

Shohiy Sulton Mas'ud Mirzo adabiyotimiz gullab, yanada ravnaq topayotgan bir sharoitda, Husayn Boyqaro va Alisher Navoiy yurgizayotgan rasmiy davlat siyosati amaliy faoliyati tufayli o'zbek adabiy tilining e'tibori, she'riyat qadri va shoir obro'si tobora orta borayotgan bir davrda ijodkor sifatida tanila bordi.

Xujjalalar ulug' Navoiy bilan yosh ijodkor Shohiy o'rtasida yaqin ijodiy munosabatlari o'rnatilganini, jumladan, mavzui faqat she'riyat va badiiy mahorat bo'lgan o'zaro yozishmalar yo'llanganligini isbotlamoqda [24, 23]. Ma'lumotlarga qaraganda, "Navoiyning maktublari majmuasi "Munshaot"ning avvalgi nashrlariga kirmay qolgan va endilikda kiritilgan maktub bu jihatdan alohida diqqatga sazovor. Shohiyga yo'llangan bu maktub uning isminigina emas, balki otasi ("voldi pok'i") bo'lgan Mahmud Mirzoning ham nomini san'atkorlik bilan misralari jismiga joylab yuborilgan mana bu to'rtlik bilan boshlanadi:

Ul shah tobug'indakim, ma'dani jud,

Shahlar aro bo'limgay bir andoq mavjud.

Ham validi pokidek xisoli Mahmud.

Ham axtari tole'dek ismi Mas'ud.

Uchinchi va to'rtinchisi misralaridagi "xisoli Mahmud" va "axtari tole'dek ismi Mas'ud" iboralari bir vaqtning o'zida maktub yo'llangan shaxs – Shohiy sha'niga yuksak ta'rif hamdir. To'rtlik mazmuniga ko'ra, maktub Shohiyning davlat arbobi va Hisor hokimi sifatidagi ijtimoiy faoliyati hali inqirozga yuzlanmagan yillarda yo'llangan. Biz uni 1492-1495 yillar oralig'ida bitilgan, deb taxmin qilamiz. "Majolis un-afois" tazkiräsining birinchi tahririni yakunlagan Navoiy bu yillarda adabiyot sahnasiga endi kirib kelgan yangi ijodkorlar nomlari bilan tazkirani

to‘ldirish lozimligini to‘la his etgan, shu maqsadda ular haqida ma’lumotlar to‘plash harakatida bo‘lgan.

O‘ylash mumkinki, Navoiy Shohiyga ham o‘z she’rlaridan namunalar yuborishni ta’kidlab maktub yuborgan. Ustozning bu iltifotidan boshi ko‘kka yetgan Shohiy “zudlik” bilan sakkiz varaqdan (“avroq qiyosidan sekkiz behisht”) iborat bo‘lgan qo‘lyozma – “juzv” yuboradi. Navoiyning maktubi ana shu qo‘lyozmani olish munosabati bilan yozilganligi uning birinchi jumlasidanoq ravshanlashadi. Yosh ijodkorga nisbatan samimiy hayrixohlik bilan bitilgan maktub mohiyatiga ko‘ra, Shohiy iste’dodi va she’riyatiga yuksak ta’rif, deb baholash mumkin. Sulton Mas’ud Mirzo yuborgan she’rlarda, deb yozadi Navoiy, go‘zal fikrlar, nozik ma’nolar va chuqur mazmun ko‘kdagi son – sanoqsiz yulduzlar kabi sochilib porlab turibdi: “Qulluq duodin so‘ngra arzadosh ulkim, yiborgan juzvki, avroq qiyosidin sekiz behishtdin namudor erdi va maoniy abkori g‘avg‘osidin hur anjum anda oshkor”. Navoiy ta’kidicha, Shohiy she’rlarining “har obdor (shirali, so‘lim, maftunkor) lafzi kuygan ko‘ngullar o‘tiga taskin va har otashbor kalimasisovug‘on yuraklar haroratiga barqoyin. Misralar salobatidin Masih anfosi xosiyati anda paydo va baytlar latofatidin hayot suyi natijasi onda huvaydo – bu faqirga yetishdi. O‘qumoqdin ruh toza, takroridin ko‘ngulga fayzi beandoza hosil bo‘ldi [24, 23]”.

Navoiyning saj’ san’ati bilan ziynatlangan bu maktubi ijodiy faoliyatini yaqindagina boshlagan Shohiyning taqdirida hal qiluvchi omillardan biri bo‘lib, iste’dodining yanada yorqinroq ochilishiga katta ta’sir ko‘rsatganiga, ruhlantirib, yangi – yangi ijodiy kuch bag‘ishlaganiga hech bir shubha yo‘q. Navoiy xuddi shu yozishmadan keyin Sulton Mas’ud Mirzoni “Majolis un-nafois”ning yangi tahririga kiritish niyatiga kelgan va tazkira uchun namuna baytni ajratib olgan bo‘lishi ehtimolga juda yaqin. Hajman uncha katta bo‘lmagan maktubning Navoiy va Shohiyning o‘zaro ijodiy munosabatlariga ravshanlik kirituvchi yana muhim bir jihatib bor. O‘z she’rlaridan namunalar yo‘llagan Shohiy ma’lum bo‘ladiki, ulug‘ shoirdan ham she’rlar yuborishini iltimos qilgan. Navoiy yosh ijodkorning bu hoxishini samimiyat bilan qabul qiladi hamda Shohiy iltimosini o‘rinlatish taraddudida ekanini bitib, tez orada “oliy majlis xuddomi” (adabiy kecha ishtirokchilari) ular bilan tanishish imkoniyatiga ega bo‘lishlariga umid bildiradi. Mana maktubning o‘scha qismi: “Bu notavonning parishon nazmlarikim, yuborurga ishorat bo‘lub erdi, oning tartibig‘a mashg‘ul bo‘luldi. Har oyina umid ulkim, oliy majlis xuddomi mutolaasig‘a bot musharraf bo‘lg‘ay! [24, 25]”

“Aflokcha taxi iqtidoring bo‘lsun!

Anjumcha sipohi beshumoring bo‘lsun!

Haq hifzi siyonati Hisoring bo‘lsun!

Ya’ni, bori ishta Tengri yoring bo‘lsun!

Omin, yo rabbil olamin [24, 25]!”

Navoiy nazariga tushgan shahzodaning she’rlari o‘z davrida Movarounnahr va Xurosonda mashhur bo‘lgan. Naql qilishlaricha, otasining amirlaridan Xusravshoh uning ko‘ziga mil tortayotganda, ushbu ruboyni o‘qigan:

Nuriki, ayyori didai ravshan bud,

Chashmi badayyom z-chashm bar bud,

Faryodki, faryod bajoyi narasid,

Afsuski, afsus namedorad sud.

(Mazmuni: Ravshan ko‘z ayyorining nuri bo‘lgan, Bad ayyom ko‘z ko‘zdan yuqori edi. Faryodki, faryod o‘z joyiga yetmadi, Afsuski, afsusdan endi foyda yo‘q [14,56].)

Faxriy Hiraviy “Majolis un-nafois” tazkirasi tarjimasiga 188 ijodkor va adabiyotsevarlar haqida o‘zi to‘plagan yangi ma’lumotlarni ham ilova qilgan. Illovada, jumladan, temuriy Sulton Mas’ud Mirzo haqida ham alohida so‘z yuritilgan bo‘lib, uning Yanosh Ekmann ta’biricha “bir chig‘atoycha va bir forscha devonlar tartib bergan”ligi “chig‘atoycha devonida Shohiy va forscha devonida esa Orifiy taxalluslarini qo‘llagan”ligi ta’kidlangan. Tadqiqotchi Yanosh Ekmann to‘g‘ri ta’kidlaganidek, Faxriy Hiraviy “Majolis un-afois”ning 896 hijriy (1491 – 1492) yili yakunlangan ilk nusxasini tarjima qilgan edi. Bu davrda ijodkor sifatida adabiyot sahnasiga hali chiqmagan Mas’ud Mirzo tabiiyki, Navoiy tazkirasidan o‘rin olmagan. Ammo, Navoiy oradan olti yil o‘tib, o‘z tazkirasining ikkinchi, uzil – kesil nusxasini tuzadi va unga she’riyatga keyinchalik kirib kelgan yuzga yaqin ijodkorni qo‘sadi, ularning har biriga o‘z munosabatini bildirib, she’riyatidan namunalar keltiradi. Navoiy to‘ldirilgan tazkiraning Amir Temur va ijodkor temuriyzodalarga bag‘ishlangan yettinchi majlisiga xuddi shu Mas’ud Mirzo nomini ham kiritib, maxsus o‘rin ajratadi hamda uning inson sifatida yuksak fazilatlar sohibi ekanligini alohida ta’kidlaydi: “Sulton Mas’ud Mirzo – ravshan zehnlik va mustahsan ta’bliq va pokiza xisol va mahmud faol yigitdir. Vafo va diljo‘yluq aning shiori, saxo va darveshxo‘yluq aning atvori” Alisher Navoiy Sulton Mas’ud Mirzo (umuman, barcha temuriy sulton va shahzoda ijodkorlardek) adabiy taxalluslarini ko‘rsatmaydi, uning forsiy she’riyati haqida esa umuman so‘z ochmaydi. Ammo Navoiy namuna sifatida keltirgan baytning o‘ziyoq Yanosh Ekmann kashf etgan Shohiy taxallusli ijodkorning Sulton Mas’ud Mirzo ekanligiga aniq guvohlik beradi [24, 17].

Mazkur shahzoda ham Husayn Boyqaroning mashhur adabiy majlislarida qatnashgan. Adabiyotshunos Abdurasul Abdug‘afurovning yozishicha, “shoir Shohiy Husayn Boyqaro saroyida muntazam o‘tkaziladigan she’riyat bazmlarida, umuman Hirot adabiy hayotida faol qatnashib, o‘z umrining qolgan qismini asosan ijodga bag‘ishlaydi [24, 22]”.

Ul vafosizning ko‘ngulga muncha nozinmu deyin?

Necha noz etgan sayin ko‘nglum niyozinmu deyin?..

Demangizkim, holatingni oshkor etgil el aro,

Shohiyi devonadek har qayda rozinmu deyin?

Adabiyotshunos Abdurasul Abdug‘afurovning yozishicha, Bobur “Risolai aruzi”da otasi Sulton Mahmud Mirzo va ukalari Sulton Boysunqur Mirzo va Sulton Ali Mirzo ijodlaridan namunalar bilan yonma-yon Shohiyning ham ikki g‘azali matlaini ramal bahrining “avvalgi vazni”ga yaxshi misol sifatida tilga oladi...

Jannat ul-ma’voki derlar yorning ko‘yi emish,

To‘biekim vasf etarlar qaddi diljo‘yi emish [24, 19].

“Risolai aruz” asarida keltirilgan mana ikkinchi matla’:

Der edimkim, bo‘limgay beyor ravshan ko‘zlarim.

Men degandek, ohkim, bo‘ldi muayyan ko‘zlarim –

Sulton Mas'ud Mirzo Shohiyning xuddi shu harfda ham go'zal g'azallar yozganligini va ular devon tarkibidan chetda qolganligini tasdiqlaydi [24, 22]". Shohiy devonining Londonda saqlanayotgan qo'lyozma mundarijasi she'r turlarini qamrab olishga ko'ra, unchalik boy emas, unda davr she'riyati amaliyotidagi yigirma yaqin turlaridan faqat to'rtdaginasи bitilgan namunalarni uchratamiz, xolos. Devon qo'lyozmalarining nusxalari bilan yaqindan tanishish Yanosh Ekmann maqolalarida keltirilgan ayrim ma'lumotlarga ba'zi aniqliklar kiritish imkonini beradi. Jumladan, g'azallarning umumiy soni u yozganidek, 152 ta emas, balki 153 tadir [24, 22]". Abdurasul Abdug'afurovga ko'ra, "bizning izlanishlarimiz Shohiy ijodiy merosining so'z yuritilgan devon qo'lyozmalari tarkibida uchramaydigan namunalarning o'z mamlakatimiz kitob xizinalarida ham mavjud ekanligini ko'rsatdi. Jumladan, Shohiyning Alisher Navoiy va Husayn Boyqaro g'azallariga bog'lagan o'ndan ortiq taxmisi Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti xazinasida saqlanayotgan 11444-qo'lyozmadan o'rin olganligi aniqlandi [24,20]".

Ne ajab Shohiyga bedod aylasa ul shohi husn,

Javr qilmoqdur gadolar holiga sulton ishi [24, 22].

Holbuki, yuqoridagi misollar va "Devoni Shohiy" temuriyzoda Sulton Mas'ud Mirzoni yetuk shoir bo'lganligini ko'rsatadi.

Sulton Mas'udning ukasi **Boysung'ur Mirzo**(1477-1499) tab'i nozik va zehni o'tkir, saltanat taxtida faqirlikni odat etgan, e'tibor maqomida o'zini unutgan, fazlu hunarga moyil va fazl ahlini qo'llab-quvvatlashni maqsad qilgan [4, 417] temuriy shahzoda bo'lgan. 1495 yilda otasi Sulton Mahmud Mirzo vafotidan so'ng 18 yoshida taxtga o'tirgan. Shu yil Samarqandga bostirib kirgan Mo'g'uliston xoni Sulton Mahmudxon bilan Samarqandga yaqin Kanboy degan joyda jang qilib g'alaba qozongan. 1497 yili tarxon beklari unga qarshi fitna uyuşhtirgan va Boysung'ur Mirzoni hibsga olib, ukasi Sultonali Mirzoni taxtga o'tqazishgan. Boysung'ur Mirzo Darvish Muhammad Tarxonni qatl etib, taxtga qayta o'tirgan. Qolgan tarxon beklari Sultonali Mirzo bilan Buxoroga qochgan. Boysung'ur Mirzo ularga qarshi qo'shin tortgan, biroq mag'lubiyatga uchragan. Sultonali, Sulton Mas'ud va Bobur Mirzolar Samarqandni qamal qilganda, Boysung'ur Mirzo shaharni tashlab ketishga majbur bo'ladi. U Hisorga borib, qisqa vaqt u yerda hukmdorlik qilgan. 1499 yilda esa u Xusravshoh tomonidan o'ldirilgan [5, 582-583].

Boysung'ur Mirzo ajoyib she'rlar yozgan. "Majolis un-nafois"da Boysung'ur haqida shunday yozilgan: "Nazm aynini dag'i anga maqbul va gohi ul fikr tab'i mashg'ul. Bu matla' aningdurkim:

Kosh dar ishqil buton devonae boshad kase,

Tarki olam karda dar vayronae boshad kase [4, 417]

(Mazmuni: Koshki edi, sanamlar ishqida biror kim devona bo'lsa, Olamni tark etib vayrona bo'lsa biror kishi.)

Fazl ahlini qo'llab-quvvatlagan shoir Boysung'ur Mirzo huzurida ham mushoiralar tashkil etilgan. Bobur e'tirof etganidek, "She'rni ham o'ziga xos yo'sinda yozardi. Odiliy taxallus qilgan edi. She'ri devon tartib bergunchalik bo'limgan edi. Bu matla' unikidir:

Soyavor az notavoni jo-bajo muo'ftam,

Gar nagiram ro'y devore zi po meo'ftam.

(Mazmuni: Tutmasam devorlarni har qadam, Soyadek yer uzra tushgum dam-badam.)

**INTERNATIONAL CONFERENCE PEDAGOGICAL REFORMS AND
THEIR SOLUTIONS**
VOLUME 2, ISSUE 2, 2024

(Boburning guvohlik berishicha,) Samarqandda Boysunqur mirzo g‘azallari shunchalik rasm bo‘lganki, mirzoning she’rlari bo‘lman uy kam topilgan [2, 69]”. Shoir Mavlono Sayfiy “Bir necha yildan keyin “Vatanni sevmoq iymondandir” hadisi taqozosicha, Movarounnahrga ketdi va said shahzoda Boysunqur Mirzo bin Sulton Mahmud Mirzo dargohi mulozimati sharafiga musharraf bo‘lib, ikki-uch yil ul hazrat xizmatida umr kechirdi.

Boysunqur Mirzo Amir Xusravshohning qasos qadahidan shahidlik sharbatini tatifach, mavlono Sayfiy to o‘lguniga qadar Buxoroda turg‘un yashadi. Ul janobning dilni o‘g‘irlovchi she’rlari va xos ma’noli nazmlari ko‘p. Mavlono Sayfiy Buxoriy hunarmand-kosiblar haqida bir alohida devon ixtiro qilgan [9, 1091]”.

Sulton Mahmudning uchinchi o‘g‘li **Sulton Ali** (1483-1500) 1498 yilda uzoq kurashlardan so‘ng Samarqand taxtiga o‘tiradi. Bu orada Shayboniyxon Buxoroni zabit etib, Samarqandga qarab yuradi. Sultonali Mirzo unga qarshi chiqishga jur‘at qilmay, onasi Zuhrabegim Oq‘aning siyosiy kaltabinligi sababli shaharni Shayboniyxonga jangu jadalsiz topshirishga rozi bo‘ladi. Ammo baribir Sultonali Mirzo qatl etiladi. U ham “Majolis un-nafois”da she’riyatga moyil shahzoda sifatida ta‘riflangan: “Derlarki, tab‘i nazmg‘a moyildur” va quyidagi bayt temuriy mirzo ijodidan namuna sifatida keltirilgan.

Vaslida mag‘rur bo‘lding hajrida zor, ey ko‘ngil,

Ne aning birla, ne onsiz toqating bor, ey ko‘ngil [2, 417].

Sulton Ali Mirzo huzurida ham majlislar tashkil etilgan va unda shahzodaning o‘zi ham she’rlar o‘qigan. Shoir Kamoliddin Binoi Hirotdan Samarqandga kelganda Sulton Ali Mirzo xizmatida bo‘lgan [5,98]. “Me’mor bo‘lgani uchun Binoiy taxallus qildi. O‘zi yana so‘z qasri ruknlarining mohir ustodi edi. Qudrat qo‘li falak korxonasi rangini to‘kmagan, unday bunyod asosli binoni biror kishi ko‘rmagan. Fitrat muhandisi to‘qqiz toqlik falak ostida muqarnas yasashda bundayin ma‘no qoidalaridagi ustodlikni hech kim eshitmagan. Lafz juzvlari ustuxonbandini uningdek choloklik bilan qo‘yolmasdi. Baytlar qoidasi asosining guldastini hech kim uningdek dastur bilan bog‘lamagan. Zamonasingin fozillar zumrasida Sulton Husayn Mirzo Ko‘ragon suhbatida doimiy bo‘lardi. Hirot viloyatidan Movarounnahr sari jo‘nadi va Samarqand podshohi Sulton Ali Mirzo ibn Sulton Mahmud Mirzo xizmatida bo‘ldi. Bu yerda Shayboniy Muhammadxon ibn Budog‘ Sultonning o‘sha yurtga istilosigacha turdi. Shayboniy uni Movarounnahr malik ush-shuarosi mansabi bilan sarafovz etdi [6,71-72].”

Shoir temuriy sultonlar sulolasini vakili **Xon Mirzo** (1485-1526) Sulton Mahmud Mirzoning beshinchi o‘g‘li bo‘lib, “bag‘oyat xushtab” va samimiy xulqli yigit edi. Asl ismi Sulton Vays Mirzo edi. Onasi mo‘g‘ul xonlari avlodidan edi. Shunga ko‘ra, uni Xon Mirzo derdilar [1,58].” Faxriy Hiraviyning “Ravzat us-salotin”ida Xon Mirzo ijodidan bir bayt keltirilgan:

On jafopeshaki dorad g‘ami u shodi maro,

Na maro yod kunad, na ravad az yodi maro [1, 59].

(Mazmuni: Na meni yodiga oladigan va na yodimdan ketadigan, U jafopeshanining g‘ami bor bo‘lib, u mening shodligimdir).

“Ravzat us-salotin”da Xon Mirzoning o‘g‘li **Sulaymonshoh Mirzo** (1514-1590) va nabirasi **Mirzo Ibrohim Vafoiy** ijodidan namunalar keltirilgan [1,59]. Hasanxoja Nisoriy Sulton Mahmud mirzoning nabirasi, she’riy majlislar tuzgan shohlar shoiri Sulaymon podshoh haqida shunday yozgan: “(Badaxshon hukmdori) Sulaymon podshoh bu dunyo lazzatu farog‘atiga

**INTERNATIONAL CONFERENCE PEDAGOGICAL REFORMS AND
THEIR SOLUTIONS**
VOLUME 2, ISSUE 2, 2024

yetishgan ersa-da, jismoniy –moddiy istaklarga mayl bildirmaydi, shunga binoan sohibi dil darveshlar bilan suhbat quradi va sharif vaqtini o‘tkinchi havaslar ilinjida o‘tkazishni o‘ziga ep ko‘rmaydi.

Podshoh goho she’rga ham mayl bildiradi. Bu sharif matla’ podshohga mansubdir:

Dilam bigirift az kori jahon, soqy bideh jome,

Ki yak soat biyobad ni dili sargashta orome [7, 66-67].

(Mazmuni: Yuragim jahon ishlaridan siqilib ketdi, soqiy qadah ber, Bir soat bu sargashta qalb orom olsin.)

She’riy majlis tuzish an’anasini Sulaymon podshohning o‘g‘li shoir Mirzo Ibrohim ham davom ettirgan: “Xushtab’ podshohzoda bo‘lib, fozillarga moyil edi. So‘zamollikda o‘xhashi topilmasdi. Shuningdek, hamisha fozilu fuzaloga rag‘bat bildirardi [7,65]”. Ibrohim Mirzo ham o‘z huzuriga shoirlarni to‘plib, mushoiralar o‘tkazgan.

Kunlardan bir kuni shahzoda adabiy majlisda bir shoira bilan mushoira qilgan. Shoira qiz Ibrohim Mirzo qarata shunday baytni o‘qigan:

Shoho, tu shoiri-yu na dar poyayi mani,

Man oftobi arshamu tu soyaii mani.

(Mazmuni: Ey shoh, sen shoirsan, ammo shoirlikda mening poyimga yeta olmaysan. Men ko‘kdagi quyoshman, sen esa atigi soyamsan.)

Shahzoda ham mushoirada bo‘sh kelmay, badihatan quyidagi baytni aytgan:

Az shuturoni Vaysi Qaran-yak shutur manam,

Man dar qatori naramu tu moyayi mani [7, 65].

(Mazmuni: Qaran Vaysining tuyalari qatorida bitta tuya menman, Men erkak tuyalar qatoridaman, sen esa mening moyamsan).

Turk admirali Seydi Ali Raisning yozishicha, u Badaxshon viloyatidagi Tolixon shahriga keladi va uni bu yerda Sulaymon shoh va uning o‘g‘li Ibrohim Mirzo qarshi oladi. Seydi Ali Rais shahzodaning suhbatida unga mazkur g‘azalini taqdim etgan:

Agar borg‘aysan ul oy qoshig‘a jisming hilol ayla,

Yuzin ko‘rmak tilar bo‘lsang, ko‘zing yoshini ol ayla.

Raqibo, ul sanamning kufr zulfin qilma andesha,

Yuri, qayt andin, o‘z kufringda bo‘l, o‘zga xayol ayla.

Gadoyi ko‘y i bo‘lg‘ay biz ko‘ngil ul xojai husning,

Zakoti vaslidan bizga nechun bermas, savol ayla...

Agar akbari ishqqa tolib ersang vosil o‘lmoqqa,

O‘zingni Kotibiy nori muhabbat birla qol ayla.

**INTERNATIONAL CONFERENCE PEDAGOGICAL REFORMS AND
THEIR SOLUTIONS**
VOLUME 2, ISSUE 2, 2024

Binobarin, “Mirzo she’rshunos bo’lgani uchun zikr etilgan g‘azalni o‘qigach, biz (Seydi Ali Rais) bilan mushoira qildi”, deb yozadi turkiyalik admiral sayyoh. Ertasi kuni Seydi Ali Rais Sulaymonshoh bilan ko‘rishib, podshohning majlisiga quyidagi g‘azalini taqdim etadi:

Olami arvohda kim men oshno bo‘ldim senga,
Haq bilur to ul zamondin mubtalo bo‘ldim senga.
Kuhl edinursa ne bor gardimni arbobi nazar,
Hamdu lilloh podshohim, xokipo bo‘ldim senga.
Ey ko‘ngil, ishqing tariyqin senga tafqim ayladim,
G‘am yema shimdin gerukim, rahnamo bo‘ldim senga.
Ko‘yi yora azm etarmen tobe’ o‘l, e dil menga,
Xotiring jam’ o‘lsin andin peshivo bo‘ldim senga.
Ganji g‘amda Kotibiy holim ko‘rib dilbar dedi:
Shod o‘l, bemori g‘am, keldim shifo bo‘ldim senga [8,95-96].

Shahzodaning atrofida ko‘plab shoirlar bo‘lgan. Ibrohim Mirzo majlisi nadimlaridan “Omoniy Badaxshoniy mashhur mo‘tabar shoirlardan (edi). Yaxshi ta’bi bo‘lgan. Ibrohim bin Shoh Sulaymon oldida e’zoz topgan [3, 127].”

Ibrohim Mirzoning o‘g‘li Shoxruh Mirzo otasidan so‘ng Badaxshonda hokimlik qilgan. Shoirtabiat bu shahzoda doimo darveshlarni qadrlagan. Hasanxoja Nisoriyning yozishicha, “**Shohrux Mirzo** qaerda ul din shohi (Shayx Xalilloh) rux ko‘rsatsa, behad xursandu-xushhol bo‘lib, bandalik palosi bo‘ylab, oti jilovida darvishlar kabi poyu-piyoda yurgan”. Muhammad Tolib ibn Tojiddin Hasanxoja al-Husayniy as-Siddiqiy o‘zining “Matlab ut-tolibin” asarida Shohrux Mirzoning Jo‘ybor shayxlaridan Nosiriddin Xoja Sa’dga yuborgan maktubidagi quyidagi she’rini keltirgan:

Qutbi olam, g‘avsi azam, onki har ro‘z oftob,
Busad az ta’zim xoki sidrai jonparvarash.
Xozini jannat ba zulfi hur rubad har saboh,
Chun nishinad gard az ruxsori shohon bar darash.

(Mazmuni: Olam qutbi, ulug‘ madadkorki, quyosh har kuni, Ta’zim uchun jonparvar vujudi daraxtining tuprog‘ini o‘padi. Jannat xazinaboni har kuni ertalab hurning zulfi bilan, Shohlar ruxsoridan uning ostonasiga qo‘ngan gardlarni supuradi.)

Shohrux Mirzoning o‘g‘li shoir **Muhammadzamon Mirzo** Mutribiyning yozishicha, “bu saltanat shiorli hazratning yaxshi tab‘i va yoqimli xayoloti bor edi. Ushbu ruboysiini juda yaxshi aytgan:

To chand ba kuhi dasht hayron bosham,
Chun bulbuli shurida dar fig‘on bosham,

Ruze boshad ki hamchu gul xanda zanon,

Dar gushayi gulshani Badaxshon bosham.

(Mazmuni: Qachongacha tog‘u-dashtda hayron yurgaymen, Ishq o‘tidagi bulbulday fig‘on qilgaymen. Kelarmikin u kun gullar kabi ochilib, Badaxshon gulshani go‘shasida shodon yurgaymen.)

“Tazkirat ush-shuaro”da naql qilinishicha, “oliy makonli bu shahzodaning muxammas yozishga ajib bir ishtiyoqi bor edi. Bir kuni maxdumiyo xo‘jasta farjomiy (Abdurahmon Jomiy)ning matla’si quyidagicha bo‘lgan g‘azalini sharif qo‘li bilan bitib, bu faqir (Mutribiy Samarqandiy)ga berdi va “agar manavi g‘azalga muxammas bog‘lasang juda yaxshi bo‘lardi”, dedi:

Bas, ki chashmoni tu xuni xalqi olam rextand,

Pushta, pushta kushta dar kuyi tu bar ham rextand.

(Mazmuni: Ko‘zlarining, chun to‘kmishlar olam ahli qonin behad, Ko‘changda yotar murdalari uyum-uyum, qatma-qat.)

Mutribiy Buxoroda hibsda saqlangan temuriy shoir shahzoda bilan ko‘p bora suhbatlashgan va uning she’rlarini tinglagan.

Muxtasar qilib aytganda, Sulton Abusaid Mirzo surriyodi bo‘lgan temuriy shoir shoh Sulton Mahmud Mirzo va uning farzandlari hamda nabiralari Sulton Mas’ud, Boysung‘ur, Sultonali, Xon Mirzo, Sulaymonshoh, Ibrohim Vafoiy, Shohrux, Muhammadzamon Mirzolarning ijodi, Samarqand, Hisor, Badaxshondagi adabiy muhit va she’riy majlislari, mushoiralar, adabiy bahslar mumtoz adabiyotimiz taraqqiyotiga xizmat qilgan.

Foydalanimagan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Zahiriddin Muhammad Bobur ensiklopediyasi. T.: Sharq NMAK BT, 2014.
2. Najmiddin Komilov. Tasavvuf. Birinchi kitob. T.: “Yozuvchi”-1996.
3. Sayyid Qosimiyy. Masnaviyalar majmuasi. Majma’ ul-axbor. T.: Fan, 1992.
4. Alisher Navoiy. To‘la asarlar to‘plami. O‘ninchchi jild.. T.: G‘.G‘ulom nomidagi NMIU, 2012.
5. Alisher Navoiy. To‘la asarlar to‘plami. To‘qqizinchi jild. T.: G‘.G‘ulom nomidagi NMIU, 2012.
6. Sirojiddinov Sh. Alisher Navoiy manbalarning qiyosiy-tipologik, tektologik tahlili. T.: Akademnashr, 2011.
7. Navoiy zamondoshlari xotirasida. T.: G‘.G‘ulom nomidagi ASN, 1985.
8. Herman Vamberi. Buxoro yoxud Movarounnahr tarixi. T.: G‘.G‘ulom nomidagi ASN, 1990.
9. Navoiy va adabiy ta’sir masalalari. T.: Fan, 1968.
10. Haqqul I. Navoiyga qaytish. 4-kitob. T.: Tafakkur, 2021.
11. Sayyid Imomxo‘ja Salimiyy. Murshidi ofoq. T.: Navro‘z, 2015.
12. G‘iyosiddin ibn Humomiddin Xondamir. Habib us-siyar fi axbori afrodi bashar. T.: O‘zbekiston, 2013.
13. Mutribiy Samarqandiy. Tazkirat ush-shuaro. T.: Mumtoz so‘z, 2013.
14. Faxriy Hiraviy. Ravzat us-salotin. T. Mumtoz so‘z, 2014.
15. Zahiriddin Muhammad Bobur. Boburnoma. T. Sharq NMAK BT, 2002.
16. Mutribiy Samarqandiy. Tazkirat ush-shuaro. T. Mumtoz so‘z, 2013.

**INTERNATIONAL CONFERENCE PEDAGOGICAL REFORMS AND
THEIR SOLUTIONS**
VOLUME 2, ISSUE 2, 2024

17. Alisher Navoiy. To‘la asarlar to‘plami. To‘qqizinchi jild. T. G‘.G‘ulom nomidagi NMIU, 2012.
18. Sharafuddin Roqimiy. Tarixi tomm. T. Ma’naviyat, 1998.
29. Hasanxoja Nisoriy. Muzakkiri ahbob. T.Meros, 1993.
- 20.Seydi Ali Rais. Mir’tul mamolik. T. Fan, 1963.
21. G‘iyosiddin ibn Humomiddin Xondamir. Habib us-siyar fi axbori afrodi bashar. T.: O‘zbekiston, 2013.
- 22.Muhammad Tolib ibn Tojiddin Hasanxoja al-Husayniy as-Siddiqiy. Matlab ut-tolibin. O‘zbek tiliga tarjima, so‘zboshi va izohlar mualliflari: G‘.Karimiy, E.Mirkomilov.T.: Movarounnahr, 2016.-B.145.
23. Abdug‘afurov A. Sulton Mas’ud Mirzo Shohiy va uning devoni. “Navoiyga armug‘on”. Uchinchi kitob. T.: Meros, 2003.-B.22.
24. Qorayev Sh. Navoiy adabiy majlislari. Qarshi, “Qashqadaryo ko‘zgusi OAV”, 2019.-B.180.
25. Qorayev Sh. Navoiy majlislari. T.: Lesson – Press”, 2020.-B.312.
26. Qorayev Sh. Temuriylar davri adabiy majlislari (Alisher Navoiy qarashlari asosida). Monografiya. T.: Donishmand ziyosi, 2021.-B.262.
27. Qorayev Sh. Temuriy shoirlar tazkirasi. Qarshi, Intellekt, 2023.-B.224.